

8-sinf

MAVZU: HALOLLIK VA TO‘G‘RILIK

Reja:

1. Halollik va to‘g‘rilik tushunchalari

2. Yaxshi va yomon xatti-harakatlar

Tushunchalar va atamalar izohi

1. Halollik va to‘g‘rilik

Halollik va to‘g‘rilik — shaxsning o‘z faoliyatida qonun, axloqiy me‘yorlar hamda adolat tamoyillariga sodiq qolishi, har qanday vaziyatda yolg‘on, aldov yoki noqonuniy yo‘llardan foydalanmasligidir.

Halollik faqat rost gapirish bilangina cheklanmaydi. U boshqalarning huquqlarini hurmat qilishida, o‘ziga berilgan imkoniyatlardan adolatli foydalanishida, noqonuniy imtiyoz yoki ustunlikka intilmasligida ham namoyon bo‘ladi.

To‘g‘rilik esa qaror qabul qilishda va harakatlarda haqiqatga tayanish, vaziyatni buzib ko‘rsatmasdan yoki yashirmasdan baholashni anglatadi.

Huquqiy nuqtai nazardan, halollik va to‘g‘rilik bu – adolatli boshqaruvning, ishonchli ijtimoiy munosabatlarning, korrupsiyaning oldini olishning muhim omili sanaladi.

Agar shaxs halollikdan chekinsa, u asta-sekin “maqsad har qanday vositani oqlaydi” degan noto‘g‘ri fikrga kelib qolishi mumkin, bu esa korrupsiyaviy xatti-harakatlarga olib keladi.

2. Yaxshi va yomon xatti-harakatlar

Yaxshi xatti-harakatlar — jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloqiy normalarga mos keladigan, boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmaydigan hamda ijtimoiy tartibni mustahkamlaydigan harakatlardir.

Yomon xatti-harakatlar esa bu normalarga zid bo‘lib:

- boshqalarning huquqlarini buzadi,
- adolatga putur yetkazadi,
- jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Muhimi, har bir xatti-harakat nafaqat boshqalarning, balki har bir shaxs o‘z harakatini baholashda o‘ziga quyidagi savollarni berishi zarur:

- bu qonunga zid emasmi?
 - bu adolatdanmi?
 - bu boshqalarga zarar yetkazmaydimi?
-

Amaliy misollar

1-holat. Halollik va to'g'rilik

Vaziyat:

Yoshlar uchun tashkil etilgan IT-markazda bepul dasturlash kursiga saralash imtihoni o'tkazildi. Saralash natijalariga ko'ra eng yuqori ball to'plagan 15 nafar o'quvchi qabul qilinishi kerak edi.

Saralashdan so'ng o'quvchilar orasida "markaz xodimlaridan birining tanishlari ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lishi mumkin" degan gap tarqaldi. Shu bilan birga, kursga kira olmagan, lekin yuqori natija ko'rsatgan o'quvchi — Kamola bu holatdan shubhalandi.

Kamola ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun markaz ma'muriyatiga murojaat qilishni o'yladi. Biroq do'stlari unga: "Aralashma, baribir hech narsa o'zgarmaydi", deb maslahat berdi. Kamola esa ikkilandi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda halollik nima bilan o'lchanadi?
 2. Kamola qanday ikki tanlov qarshisida turibdi?
 3. Nega ba'zi odamlar adolatsizlikka duch kelganda sukut saqlashni afzal ko'radi?
 4. Agar bunday holatlar nazoratsiz qolsa, qanday tizimli muammolar yuzaga kelishi mumkin?
 5. Bu vaziyatni korrupsiyaga oid holat sifatida baholash mumkinmi? Nima uchun?
 6. Halollikni saqlab qolish uchun qanday to'g'ri yo'l tutilishi kerak edi?
 7. Siz Kamola o'rnida bo'lganingizda qanday qaror qabul qilardingiz?
-

2-keys. Yaxshi va yomon xulq-atvor

Vaziyat:

O'quvchilar o'rtasida startap loyihalari tanlovi tashkil etildi. Har bir guruh o'z g'oyasini taqdim etishi kerak edi. Bir guruh o'quvchilar loyiha ustida mustaqil ish olib bordi, boshqa bir guruh esa internetdan tayyor loyihani olib, uni biroz o'zgartirib, o'z nomidan topshirdi.

Hakamlar hay'ati taqdim etilgan loyiha juda sifatli bo'lgani uchun aynan shu guruhni g'olib deb topdi. Mustaqil ishlagan guruh a'zolari esa bu natijadan norozi bo'ldi, chunki ular o'z mehnatini qadrsiz deb hisobladi.

Keyinchalik ayrim o'quvchilar "natija muhim, unga qanday yo'l bilan erishilganining ahamiyati yo'q" degan fikrni ilgari sura boshladi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda qaysi xatti-harakatlar yaxshi, qaysilari yomon deb baholanadi?
2. Nima uchun tayyor loyihani o'zlashtirish adolatsizlik sanaladi?
3. "Natija muhim" degan fikr qay darajada to'g'ri?
4. Mehnat va natija o'rtasidagi bog'liqlik nimadan iborat?
5. Agar bunday xatti-harakatlar odatiy tus olsa, qanday muhit shakllanadi?
6. Bu holat korrupsiyaviy fikrlashning shakllanishiga olib kelishi mumkinmi? Nima uchun?
7. Halol raqobatni ta'minlash uchun qanday qoidalar zarur?
8. Siz hakamlar hay'ati a'zosi bo'lganingizda qanday qaror qabul qilardingiz?